

15. Турсунметов К.А. и др. О проблеме организации решения задачи по физике полупроводников. // Технологии и методики в образовании. – Воронеж: 2010, №3. – С. 38-40.
16. Турсунметов К.А., Тигай О. Электронный контрольно - обучающий учебник. Патент РУз №ДСУ 2008150.
17. Турсунметов К.А., Шералиев С.С., Мавлянов Х.Ю. Научно-технические аспекты использования анимационных программ в научных-учебных разработках. // Проблемы информатики и энергетики. Журнал АН Республики Узбекистан, 2012. № 5. – С. 88-95.
18. Турсунметов К.А., Власов И. Физика полупроводниковых приборов (Электронный учебник) (Узб). –Ташкент: 2009.
19. Турсунметов К.А., Мавлянов Х.Ю. Виртуальные лабораторные работы по физике полупроводников. Патент Республики Узбекистан № 01927, 2010. –С. 312.
20. Турсунметов К.А. и др. Электронные разработки по физике полупроводников. // Учебный эксперимент в образовании. – Воронеж: 2013, №3. – С. 47-51.

РЕЗЮМЕ. Мақолада талаба ва ўқувчиларнинг физика, хусусан, ярим ўтгазгичлар физикаси курси бўйича мустақил тайёргарлик кўриш, такрорлаш, такрорлаш ва тезкор қайта тайёрланиш муаммолари кўриб чиқилади. Физика, хусусан яримўтқагичлар физикаси курсини мустақил ва муваффақиятли ўзлаштириш ҳамда такрорлаш имконини берувчи зарур ўқув материаллари, дасликлар, электрон ишланмалар ва бошқа ўқув-ёрдамчи материаллар кўрсатиб ўтилган. Ушбу материаллар техника, технология ва энергетика соҳаларида мутахассисларнинг самарали ва малакали фаолият юритишларига ёрдам беради.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются проблемы самостоятельной подготовки, повторения и экстренной переподготовки студентов и учащихся курса физики, в частности физики полупроводников. Указаны необходимые учебные материалы, учебники, электронные разработки и другие учебно-вспомогательные материалы, позволяющие самостоятельно и успешно освоить и повторить курс физики, в частности физики полупроводников, позволяющие успешной и грамотной деятельности специалистов по технике, технологии и по энергетике.

SUMMARY. The article examines problem of independent preparation, revision, and urgent retraining of students and learners in the physics course, particularly in semiconductor physics. It identifies the necessary educational materials, textbooks, electronic resources, and other supplementary teaching aids that enable students to independently and successfully master and review the physics course, especially semiconductor physics, thereby contributing to effective and competent work in the fields of technics, and technologies of energetic.

“DEVONU LUG‘OTIT-TURK” ASARIDAGI TURKIY XALQLAR FOLKLORI VA UNING ADABIYOT O‘QITISH METODIKASIDAGI O‘RNI

A.A.Yusupov – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

Innovation texnologiyalar universiteti

J.M.Avezbayeva – *assistent o‘qituvchi*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: qomusiy olim, sa’jlar, maqollar, qo’shiqlar, etnografiya, folklor, adabiyotshunoslik, urf-odat, ovchilik, marosimlar, ishonch-e’tiqod.

Ключевые слова: ученый-энциклопедист, саж, пословицы, стихотворения, этнография, фольклор, литературоведение, обычаи, охота, обряды, верования.

Key words: encyclopedic scholar, prayers, proverbs, poems, ethnography, folklore, literary studies, customs, hunting, rituals, beliefs.

Kirish. Mahmud Qoshg‘ariy XI asrning yirik mutafakkiri bo‘lib, turkiy xalqlar madaniyati, tili va adabiyotini o‘rganishda beqiyos iz qoldirgan. Uning “Devonu lug‘otit-turk” asari turkiy filologiya fanining ilk manbalaridan biri sanaladi. Asarda turkiy tillarning leksikasi, fonetikasi, morfologiyasi, qabilalar tasnifi, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi, etnografiya, geografiya, toponimika kabi ko‘plab masalalar o‘z aksini topgan. “Devon” nafaqat lug‘at, balki turkiy xalqlarning qadimiy madaniy hayotini aks ettirgan ensiklopedik yodgorlik sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada asarning tilshunoslik, folklorshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan mazmuni tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarining ilmiy-nazariy ahamiyatini o‘rganishda mavjud adabiyotlar bir necha yo‘nalishda qimmatli ma’lumotlar beradi.

Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari haqida eng ishonchli ma’lumotlardan biri S. Mutallibov tomonidan tarjima qilingan uch jildli nashrda keltiriladi. Ushbu manbada asarning tuzilishi, alifbo tartibida joylashtirilgan

leksik birliklar, ularga berilgan sharh va izohlar, shuningdek, muallifning o‘z oldiga qo‘ygan ilmiy maqsadi aniq ko‘rsatiladi [2].

Boqijon To‘xliyevning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” asarida dars jarayonida o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish, badiiy matnni bosqichma-bosqich anglashga yo‘naltirilgan metodlar, muammoli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuvning qo‘llanishi haqida nazariy asoslar bayon etilgan. Ushbu manbada keltirilgan qadimiy turkiy so‘zlarning ma’nodoshlik, ko‘p qirrali semantik qatlamlari, xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligi metodik ishlanmalarda badiiy matn bilan ishlashning tilshunoslik asoslarini mustahkamlaydi [1].

B.Qosimov, B.To‘xliyev, Q.Yo‘ldoshev tomonidan yaratilgan *10-sinf adabiyot darsligi* (2004) hamda Boqijon To‘xliyevning *9-sinf adabiyot darsligi* (2000) o‘rganildi. Ushbu darsliklarda badiiy asar tahlilining bosqichlari, o‘quvchi yosh xususiyatiga mos metodik tamoyillar, matndan kelib chiqib topshiriqlar tuzish, savol-javob va amaliy mashqlar tizimi keng yoritilgan. Ayniqsa berilgan matn ustida ishlash metodlari – kompozitsion tahlil,

personajlar xatti-harakati orqali axloqiy xulosaga kelish, muammoli vaziyatlar yaratish – tadqiqot uchun muhim metodik asos bo‘ldi [3, 4].

Natijalar va muhokama. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy xalqlar madaniyati va fani tarixida alohida o‘rin tutadi. U turkiy filologiya fanini taratgan olimlardan biri va birinchisidir. Uning “Devonu lug‘otit turk” asarida bu fanning deyarli barcha sohaları yoritilgan: turkiy tillar leksikasi, fonetikasi va morfologiyasi, turkiy tillar tasnifi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodi va boshqalar. Asarda shuningdek, turkiy xalqlar etnografiyasi, toponimikasi, geografik joylashuviga oid qimmatli ma‘lumotlar ham bor. Mahmud Qoshg‘ariy tillarni qiyosiy o‘rganishga ham asos solgan.

Mahmud Qoshg‘ariy XI asrning buyuk mutafakkiridir. Uning qomusiy olim sifatida ko‘plab fanlarga oid ma‘lumotlarni to‘plagan va “Devonu lug‘otit turk” asarida aks ettirgani ma‘lum. Olim bu asarida o‘zini yirik tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham ko‘rsatadi. Devondagi adabiy parchalar nihoyatda keng mavzularga bag‘ishlangan. Ularning janrlari ham rang-barang. Olim bu asarlarga tegishli izoh va sharhlar berishning go‘zal namunalarini tavsiya etadi. Kitobda ayrim janrlar, badiiy-tasviriy vositalar, she‘riy vaznlar haqida ham ko‘plab ma‘lumotlar, izoh va talqinlar mavjud. Ba‘zi hollarda ayrim adabiy asarlarning o‘qilishi, ularning ma‘no xususiyatlari haqidagi ko‘rsatmalarning mavjudligi adabiy ta‘limning o‘sha davrdagi holati haqida dastlabki tasavvurlarni bera oladi [1:20-21].

Olim o‘z kitobidagi materiallarni joylashtirish haqida, ularni kitobxonlarga yetkazish haqida uzoq muddat bosh qotirgan. “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, sa‘jlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong‘i joylarini yoritdim. Bu ish ustida so‘zlarni o‘z joyiga qo‘yish, kerakli so‘zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yillar mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so‘zlarni o‘z joyida ko‘zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim” [2:44-45].

“Devonu lug‘otit turk”, birinchi navbatda, lug‘at kitobidir. Muallif Xitoydan Rumgacha yoyilgan turkiy qabilalarning tilini atroflicha o‘rganadi va ularning kundalik hayotda ishlatib turgan so‘zlarini to‘plab, arab tiliga tarjima etish va izohlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Qoshg‘ariy biror so‘zni izohlar ekan., uning boshqa turkiy qabilalardagi variantini ham keltiradi, bugungi ifoda bilan aytganda, qiyosiy metod bilan ish ko‘radi.

Kitob turkiy xalqlarning tarixini o‘rganish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir. Unda quyidagi turkiy qabilalarning nomlari keltirilgan: bajanak(bular Rum sarhadiga yaqin yashaydilar), qipchoq, o‘g‘uz, yamak, boshqird, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirg‘iz, chigil, tuxsi, yag‘mo, ig‘roq, jaru, jamul, uyg‘ur, tangut va Xitoy bilan yondosh yashaydigan tabg‘ochlardir. Asar birgina tilshunoslik, etnografiya emas, tarix, geografiya, folklor va adabiyotshunoslik, hatto tibbiyot kabi bir qator fanlar nuqtayi nazaridan ham qimmatli ma‘lumotlar bera oladi [3].

“Devonu lug‘otit turk” XI asrda yozilgan bo‘lsa-da, unga jamlangan badiiy parchalar turkiy xalqlar adabiyoti-ning ancha oldingi davrlarida vujudga kelgan. Unda xalq og‘zaki ijodi namunalarining ko‘pi asar yozilgan davrdan 5-

6 asr qadimroqdir. Ularda turkiy xalqlarning urf-odatları, ishonch-e‘tiqodları, marosimları bilan bog‘lanib ketadigan badiiy lavhaları ko‘ramiz.

Ularning bir qismi bevosita tarixiy mavzularga bag‘ishlangan. Alp Er To‘nga rivoyati, yabog‘u (yobg‘u)lar tangutlar bilan bo‘lgan janglar haqidagi parchalar, shuningdek ayrim shaxs va joylar bilan bog‘liq afsonalar shular jumlasidandir. Bu yodgorliklardan XI asrgacha bo‘lgan adabiyotdagi bir qator adabiy janrlar va badiiy tasvirning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

Devonga kirgan adabiy shakllarning asosiy qismini to‘rtliklar tashkil qiladi. Adib ularni asosan “qo‘shug‘” yoki “she‘r” deb nomlagan. Ularda nihoyatda xilma-xil mavzular tilga olinadi. Vatan va yurt muhabbati, xalq uchun jang qilgan bahodirlar bilan faxrlanish, tabiat manzaralari go‘zalligi, mehnat shavqi, turli insoniy kechinmalar talqini asardagi yetakchi mavzulardir.

Devonda turkiy xalqlar turmush manzaralari bilan bog‘liq bo‘lgan she‘riy parchalar katta o‘rin tutadi. Ularda xalqning urf-odati, yashash tarzi, mashg‘uloti, ishonch-e‘tiqodlarining ifodasi juda ochiq ko‘rinadi.

Yigitlarig ishlatu,
Yig‘ach yamish irg‘atu,
Qulan, kayak avlatu,
Bazram qilib avnalim.
(Yigitlarni ishlatib,
Daraxt mevalarini qoqtiraylik.
Kulon, kiyiklarni ovlatib,
Bayram qilib ovunaylik.)

Bu misralarda turkiy xalqlarning hayot manzaralari o‘z aksini topgan. Yigitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka yo‘naltirish qadimgi turmush tarzining ayrim lavhalaridir.

“Devonu lug‘otit turk”dagi ko‘pgina qo‘shiqlar ovchilik, chorvachilik bilan – turkiy xalqlarning yashash tarsi bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga kelgan. “Qo‘shiq” atamasi ham ilk marta Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan qayd etilgan. Xalq qo‘shiqlari ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Unda shodlik va g‘am, o‘yin-kulgi va qayg‘u-hasrat, ko‘tarinkilik va tushkunlik, turli marosimlar: to‘y, farzand tarbiyasi (alla), o‘tganlar yodi tasvirlanishi mumkin. Tabiiyki, inson mehnati ham ularning yetakchi mavzusidir. Ular orasida tabiat tasviriga, tabiat manzaralariga bag‘ishlanganlari ham oz emas. Yana bir turkum qo‘shiqlar bevosita farzandlar, jamiyat a‘zolarining ma‘naviy kamolotiga bag‘ishlangan. Ularda yaxshi insoniy fazilatlar ulug‘lanadi, insonni ma‘naviy jihatdan boyitadigan xislatlar targ‘ib qilinadi, aksincha, inson nomini yerga uradigan, uning xalq nazaridan qolishiga sabab bo‘ladigan, o‘zgalar ko‘ngliga malol keltiradigan xususiyatlar tanqid qilinadi [4: 70-71].

Qo‘shni-qo‘num ag‘ishqa,
Qilg‘il angar ag‘irliq,
Artut alib anung‘il,
Ezgu tavar o‘g‘urluq
(Qo‘ni qo‘shnilaringga yaxshilik qil,
Ularni hurmatla.
Ulardan biror sovg‘a olsang,
Undan yaxshiroq mukofot hozirla.)

Mahmud Qoshg‘ariy “Devon”idagi she‘riy parchalar-ning asosiy qismi xalq og‘zaki ijodi mahsulidir. Ularda har xil mavzular yoritilgan.

Tag'ig' uquqin egmas, tengizni qayg'iqin bukmas" (Tog' arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bekilmaydi)

Bu maqol katta ishni arzimagan sabab bilan to'xtatib bo'lmaslik mazmunida qo'llanadi. Har bir ishga astoydil kirishishga undovchi maqollar ham mavjud. Shulardan biri "Emgak ekinda qolmas" (mehnat bo'sh ketmaydi) "Mehnatning tagi rohat" maqoliga mazmunan mos keladi. Birgalikda harakat qilish, o'zaro kengashishning yaxshi natija berishini maqollar ham uchraydi. Masalan, "Kengashlik bilik uzlashur, kengashsiz bilik o'prashur" (Maslahatli ish brogan sari yaxshilashib boradi, bemaslahat ish esa borgan sari buzilishga yuz tutadi) Bu esa bugungi

kundagi "Kengashli to'y tarqamas" maqoliga mazmunan mos keladi.

Mehmon qadimgi turkiy tilda "uma" deyilgan.

"Uma kelsa, qut kelar" (Mehmon kelsa qut, baraka keladi) mazkur maqol esa "Mehmon rizqi bilan keladi" maqoliga hamohangdir.

Xulosa. "Devonu lug'otit turk" dagi she'riy parchalar ajdodlar hayoti, ular boshidan kechgan issiq-sovuq kunlar, quvonch-tashvishlar oynasidir. Ularda jangovar hayot manzaralaridan mehmon kutishgacha, ishqiy kechinmalar-dan olamni idrok etishgacha bo'lgan murakkab tuyg'ular o'z ifodasini topgan. "Devonu lug'otit turk" asari turkiy tilning X-XI asrlardayoq yuksak jahoniy mavqega ko'tarilganiga dalildir.

Adabiyotlar

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2006.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'ot at-turk) Uch tomlik I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – Toshkent: «Fan», 1960.
3. Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: «O'qituvchi», 2004.
4. Boqijon To'xliyev O'zbek adabiyoti 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: «O'qituvchi», 2000.

REZYUME. Maqolada "Devonu lug'otit turk" asarining turkiy xalqlarning tarixini o'rganish jihatidan kata ahamiyatga egaligi va bu asarda turkiy xalqlar folkloriga oid namunalarning keltirilishi haqida namunalar bilan izohlangan. "Devonu lug'otit turk" asaridan olingan maqollardan namunalar izohlari bilan keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье с примерами объясняется большое значение произведения "Девону луготит турк" с точки зрения изучения истории тюркских народов и приведение в этом произведении образцов фольклора тюркских народов. Приведены примеры пословиц из произведения "Девону луготит турк" с комментариями.

SUMMARY. The article explains with examples the great importance of "Devonu lug'otit turk" in terms of studying the history of Turkic peoples and the inclusion of examples of Turkic folklore in this work. Examples of proverbs taken from the work "Devonu lug'otit turk" are given with explanations.